INGLIZ TILIDAGI MAQTOV FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Kadirova Dilfuza Alisherovna
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi, Qo‘qon DPI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz madaniyatidagi maqtovga oid frazeologik iboralar ifodalangan bo‘lib, ularni ma’nolari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: fraza, frazema, frazeologik ibora, obrazlilik, badiiy so‘zlashuv

Ikki va undan ortiq so‘zning barqaror munosabatidan tashkil topgan, ma’nosi odatda, bir so‘zga, ba’zan so‘z birikmasi, gapga teng keladigan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi, ko‘chma ma’noli barqaror (turg‘un) birikma ibora yoki frazeologizm deyiladi.[1, B.113]

Frazeologizmlar adabiy tilning badiiy va so‘zlashuv uslubida keng, ko‘p ishlatilinadi va nutqni ta’sirchan, obrazli ifodalashga xizmat qiladi.

Inglizlarda frazeologik lug‘atlarda va badiiy adabiyotlarda iboralar quyidagicha ifodalanadi:

As bright as a button—ushbu ibora *“nihoyatda aqlli”* degan ma’noni ifodalaydi: *Pilar is as bright as a button.*

Blue blood—mazkur ibora ijtimoy mavqega doir maqtov iborasi bo‘lib, *“eng yuqori ijtimoiy tabaqaga mansub, aristokrat”* degan ma’nolarda qo‘llaniladi: *I think there’s blue blood in her family; her great-grandmother was a Russian princess.*

Got green fingers — ushbu ibora qobiliyatga oid maqtov bo‘lib, *“juda yaxshi bog‘bon”* degan ma’nolarda ishlatiladi: *My mother’s got green fingers. Everything she plants in the garden grows well.*

A dark horse — mazkur ibora insonni qobiliyatiga doir maqtov iborasi bo‘lib, *“kutilmagan darajada aqlli, o‘z ishining mohir ustasi”* sifatida ifodalanadi.

Look like a million dollars/bucks — mazkur ibora insonlarning tashqi ko‘rinishiga berilgan maqtov bo‘lib, *“ajoyib, betakror, juda ham jozibali, zo‘r ko‘rinmoq”* ma’nolarida ishlatiladi. Ba’zida bu idioma yigitlar uchun ham ishlatilishi mumkin, ammo bu ibora ko‘proq ayollarni maqtash uchun ishlatiladi.

“Wow, Mary, you look like a million dollars/bucks this evening. I love your dress!”

Ingliz frazeologik birliklarida ovqat orqali ham maqtovni ifodalash quyidagi iboralarda ko‘rinadi:

Cool as a cucumber—mazkur ibora insonlarning fe’l-atvoriga oid maqtov bo‘lib, *“xotirjam, og‘ir bosiq”* ma’nolarida qo‘llaniladi.

“My friend is nervous about taking his driving test but I’m cool as a cucumber.”

A smart cookie—ushbu ibora insonning aqliy faoliyatiga doir maqtov bo‘lib, *“o‘ta aqlli, bilimdon”* degan ma’nolarda ifodalanadi.

“It shouldn’t be hard too hard for a smart cookie like you to learn Spanish.”

Top banana—quyidagi ibora shaxsning kasbiy faoliyatiga oid maqtov bo‘lib, *“guruh yoki tashkilotda eng kuchli, muhim inson, lider”* ma’nolarini anglatadi.

One-trick pony – quyidagi ibora qobiliyatga oid maqtov bo‘lib, *“ma’lum bir sohaning mutaxassisi, iste’dodli”* shaxslarga nisbatan ishlatiladi.

The life and soul of the party— mazkur ibora fe’l-atvoriga oid maqtov bo‘lib, *“g‘ayratli, serharakat, ijtimoiy tadbirlarda faol”* insonlarga nisbatan ishlatiladi.

Quyida go‘zallik va tashqi ko‘rinishga oid maqtov iboralarini ko‘rishimiz mumkin:

Dressed to kill—mazkur ibora tashqi ko‘rinishga doir maqtov bo‘lib, *“o‘ziga jalb qiladigan darajada kiyingan, jozibali kiyingan, zamonaviy kiyingan”* ma’nolarida ifodalanadi.

Dressed up to the nines—quyidagi ibora tashqi ko‘rinishga doir maqtov bo‘lib, “o‘ta jozibali kiyingan, bejirim, yarashgan” ma’noda qo‘llaniladi.

Hourglass figure—ushbu ibora tashqi ko‘rinishga oid maqtov bo‘lib, *“ofatijon, ketvorgan, xushbichim”* ma’nolarida ishlatiladi.

Athletic build—quyidagi ibora tashqi ko‘rinishga oid maqtov bo‘lib, *“ko‘rkam, kuchli, baquvvat, ko‘rinishi chiroyli, basavlat”* ma’nolarida ifodalanadi. Mazkur ibora erkaklarni maqtash sifatida qo‘llaniladi.

Have/has outgoing personality—quyidagi ibora fe’l-atvorga oid maqtov bo‘lib, *“kirishimli”* ma’nolarida ifodalanadi.

Go-getter-ushbu ibora fe’l-atvorga oid maqtov bo‘lib, *“intiluvchan, maqsad qo‘yib erishadigan”* insonga nisbatan ishlatiladi.

Goody-goody/goody two shoes—mazkur ibora fe’l-atvorga oid maqtov bo‘lib, *“yaxshi xaraktarga ega inson*” ma’nolarida ishlatiladi.

Mover and shaker—mazkur ibora fe’l-atvorga oid maqtov bo‘lib, *“aktiv, harakatchan”* ma’nolarida ishlatiladi.

Social butterfly—ushbu ibora fe’l-atvorga oid maqtov bo‘lib, *“hamma bilan kelishib ketadigan”* insonga nisbatan ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi.—Toshkent: Barkamol fayz mediya, 2016. —B.113

2. Холмурадова Л.Э. Инглиз ва француз тилларидаги образли ва мотивлашган фразеологизмларнинг тематик-идеографик талқини (лингвомаданий аспект): фалсафа. фан. докт. дисс. (PhD) автореф. —Т.: 2017 – 56 б.

3. Klochko L. The Pragmatic Strategy of Praise in Modern Language // Pragmatics and Beyond. – Kharkiv: Vasyl Karazin National University. – 2001. – P. 19-20.